



BANK TIZIMIDA ELEKTRON AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

Nasimova Yulduz Baxriddin qizi

Toshkent moliya instituti Bank ishi fakulteti, 3-kurs BIA-82 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada respublikamizda faoliyat yuritayotgan banklar tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida aholiga masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish, bank-mijoz, internet-banking, mobil-banking va chakana to'lovlarni amalga oshirish va keng joriy etish ishlarini muvofiqlashtirishda axborot texnologiyalarining o'rnini tahliliga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: bank, bank tizimi, bank texnologiyasi, axborot texnologiyalari,

KIRISH

Keyingi yillarda mamlakatimiz bank tizimi jadal rivojlanmoqda. Bugungi kunda tobora ko'proq banklar o'z xodimlarining professionalligi va yangi texnologiyalarga tayanmoqda.

Bank - bu mamlakatdagi pul mablag'larini boshqarish uchun yaratilgan moliyaviy institutdir. O'zbekiston Respublikasi bank tizimining bosh maqsadi jahon talabiga mos keluvchi, rivojlangan milliy kredit tizimiga ega bo'lish, xo'jaliklar va aholining bo'sh turgan mablag'larini jalb qilish, uni samarali taqsimlash asosida aholining talablarini qondirish uchun zamin yaratish va yashash sharoitini yaxshilashga erishish. Bank axborot tizimi (BAT)-moliyalashtirish va kreditlashning belgilangan shartlariga muvofiq nazorat qilinadigan resurslarni o'zlashtirish, qaytarish va muvozanatlash vositasi bo'lgan yagona dasturiy-texnologik kompleks hisoblanadi. Bank axborot texnologiyasi - hisoblash texnikasidan foydalangan holda boshqaruv qarorini tayyorlash, qabul qilish va amalga oshirishni ta'minlash maqsadida ma'lumotlarni to'plash, ro'yxatga olish, uzatish, saqlash va qayta ishlash usullari asosida bank axborotlarini qayta ishlash jarayoniga aytiladi.

Yangi kompyuter texnologiyalarini joriy etish uchun bankdan ko'ra qulayroq zaminni tasavvur qilish qiyin. Aslida, bank faoliyati davomida yuzaga keladigan deyarli barcha vazifalarni avtomatlashtirish juda oson. Muhim axborot oqimlarini tez va uzluksiz qayta ishlash har qanday yirik moliyaviy tashkilotning asosiy vazifalaridan biridir. Shunga ko'ra, tobora ortib borayotgan axborot oqimlarini qayta ishlash imkonini beruvchi kompyuter tarmog'iga ega bo'lish zarurati yaqqol namoyon bo'lmoqda.





Bundan tashqari, eng zamonaviy texnologiyalardan foydalanish uchun etarli moliyaviy resurslarga ega bo'lgan banklardir. Biroq, o'rtacha bank kompyuterlashtirishga katta mablag' sarflashga tayyor deb o'ylamaslik kerak. Bank, birinchi navbatda, foyda olish uchun mo'ljallangan moliyaviy muassasadir, shuning uchun modernizatsiya qilish xarajatlari uni amalga oshirishdan kutilayotgan foyda bilan taqqoslanishi kerak.

Bugungi kunda banklarning asosiy muammolaridan biri bu - bank elektron tizimiga yo'naltiriladigan investitsiyalarni boshqarishdir. Chunki bank elektron tizimida bank industriyasi o'zgarishlari va bank faoliyati haqida zamonaviy tasavvur to'liq aks etishi lozim. Biznesning strategik yo'nalishlaridagi muvaffaqiyat to'lig'icha yangi tizimlar realizatsiyasiga bog'liq.

Bu muammoni yecha olgan raqobatlashayotgan banklar 2000 yilda yetakchilik orasida bo'ladi. Bankning muvaffaqiyatli ishlashi axborotlashtirishga jiddiy munosabatsiz iloji yo'q.


Avtomatlashtirilgan tizimlar bankni muvaffaqiyatga olib keluvchi bank faoliyatini rivojlantirish yo'llari izlanishni qo'llab-quvvatlashi lozim. Lekin ko'pincha bu tizimlar mehnatning "qo'l texnologiyasi"ni to'liq takrorlaydi (bunday vaziyatni anglatuvchi maxsus inglizcha atama "electronic concrete" ham paydo bo'ldi).

Ayni vaqtda zamonaviy bank texnologiyalaridan foydalanish bankka mijozlar bilan ishlash, bozor tadqiqoti, moliyaviy boshqaruv kabi asosiy sohalarda yordam berishi, hisbo va hisobot bo'yicha bank ichki operatsiyalarini mutlaqo ishonchli qilishi, yanada foydali xizmatlar joriy etishi mumkin

ASOSIY QISM

Bankda axborotlashtirish to'g'ri olib borilayotganligini baholashga imkon beruvchi tamoyillar mavjud. Muvofiqlik tamoyili. Bu tamoyilga rioya etish axborotlashtirishni shunday tarzda bajaralishini ta'minlaydiki, tizimni qisman bilish qolganlarini oldindan aytib berishga imkon beradi, ya'ni butun tizim bir asosga qurilishi zarur. Moslik va ortogonallik tamoyili tizimga qo'yilgan talablarga mos funktsiyalargina o'nga kiritilishini talab qiladi. Kiritilgan funktsiyalar mustaqil bo'lishi lozim.

Tejamkorlik va to'liqlik tamoyil tizimda funktsiyalar ikkilantirilishi mumkin emas. lekin texnologik va iqtisodiy cheklanishlarni hisobga olgan holda kiritilgan funktsiyalar foydalanuvchining istak va extiyolariga to'liq javob berishi lozimligini anglatadi.





Ochiq oshkoralik tamoyili. Dasturiy majmualar ishlab chiqish va ekspluatatsiyasi jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, tizimlarni yaratishda qator kelishuvlarga erishish lozim. Bunday kelishuvlar ishlab chiqilgan va ular bajarilayotgan tizimlarni ochiq oshkora deb atash qabul qilingan. Oshkora (ochiq) tizimlar standartiga rioya qilish tizimlar ekspluatatsiyasi va modernizatsiyasiga harajatlarni qisqartirishga, ishlanmalar sifatini oshirishga imkon beradi.

Kompyuter tizimiga talablarni ifodalashdan avval tizimdan kim foydalanishi, bundan kim foyda olishi, tizimda qanday axborot ishlanishini aniqlab olish zarur. Agar komp'yuter tizimi kutubxona kitobxonlariga xizmat ko'rsatishni avtomatlashtirish uchun tashkil etilsa, aviachiptalar sotishni avtomatlashtiruvchi tizimga qaraganda boshqaroq talablar qo'yiladi. Shu nuqtai nazardan bank elektron taxlil qilamiz. Tizim foydalanuvchilari bank xodimlari bo'lib, ular hisoblash texnikasi va informatika bo'yicha mahsus kasbiy ta'limga ega emas. Ular uchun komp'yuter asosiy ishi uchun qo'shimcha yordamchi instrument.


Axborot texnologiyalardan foydalanish strategiyasini metodlar belgilaydi, ular yordamida zamonaviy biznes va bu o'zgarishlarni boshqarish yo'llari o'zgartiriladi. Zamonaviy bank faoliyatining foydaliligi ko'p jihatdan yuqori boshqaruvning o'z vaqtida va to'liq axborot bilan ta'minlanishiga bog'liq. Axborot boshqaruvi tizimi bankning o'z faoliyatidagi haqiqiy yordamchilari bo'lib, bozordagi holat bank operatsiyalari foydaliligi, mijozlar hisobi holati va boshqalarga oid axborotlarni ta'minlaydi. Ular yordamida olingan axborotlar bank tomonidan mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash va shaxsiy maqsadlar uchun foydalanilishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA TAHLIL

Bugungi kunda axborot texnologiyalaridan keng foydalanish ob'ektiv zaruratga aylandi. Axborot texnologiyalari qo'llaniladigan sohalar doirasi juda keng. Ularning jadal rivojlanishining boshidan buyon an'anaviy ravishda katta ahamiyatga ega bo'lgan sohalardan biri bu moliya sektoridir.

Bank texnologiyasi – bank tomonidan o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida bank mahsulotlarini chiqarish va maqsadli auditoriyaga yetkazish uchun yaratilgan tizimdir.

Shuningdek, bank texnologiyasi - bu ma'lumotlarning tartiblangan to'plami va funksional jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan operatsiyalar, ish tartiblari, shuningdek zarur resurslar bilan ta'minlangan harakatlar, shu jumladan:





- material,
- texnik,
- moliyaviy,
- xodimlar,
- ma'lumot,
- vaqtinchalik,
- dasturiy ta'minot,
- matematik.

Bank texnologiyalari samarali bank operatsiyalarini amalga oshirishga qaratilgan inson mexanizmlari yoki texnik tizimlar tomonidan amalga oshiriladi. Bank texnologiyasi amaliyotda muassasaning maqsadga muvofiq faoliyatini tashkil etish usullarini o'z ichiga oladi, ular optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilishga yo'naltirilgan texnika va usullarga asoslanadi.

Bugungi kunga kelib, bank texnologiyalarining bir nechta turlari mavjud. Ulardan asosiylari bankning axborot texnologiyalaridir.

Zamonaviy bank sektori raqobatning kuchayishi, operatsiyalar rentabelligining pasayishi va mijozlar uchun keskin kurash sharoitida mavjud. Bularning barchasi mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va narxini pasaytirish talablarini, shuningdek, ma'lumotlarni qayta ishlash tezligi va hajmiga yangi talablarni keltirib chiqaradi. Tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish yo'llaridan biri axborot texnologiyalarini (AT) joriy etish, bankning barcha funksiyalarini qamrab oluvchi va axborotni oxirigacha qayta ishlashni ta'minlovchi yagona integratsiyalashgan tizim sifatida bank tartib-qoidalari va jarayonlarini kompleks avtomatlashtirishdir.

Bank elektron tizimi uchun texnik platforma tanlashda quyidagi parametrlarni hisobga olish maqsadga muvofiq:

- standart testlar bilan mutanosiblikda EHM mahsuldorligi;
- operativ va disk xotirasi resurslari;
- texnik platforma darajasida rezervlash imkoniyati;
- yagona protsessorga asoslangan shu EHM oilasi mavjudligi;
- joriy yilda EHMning ushbu modelini xorijiy va Rossiya banklari tomonidan sotib olinganligi haqida axborot mavjudligi;





- “narxlar mahsuldorlik” va sekundiga transaktsiyalar miqdori nisbatiga oid ma’lumot mavjudligi;
- harid qilib bo’lingan dasturiy ta’minot bilan apparat va dasturiy ta’minot darajasida mutanosibliigi;
- ishlab chiqaruvchi firmada servis-markaz va unda xizmat ko’rsatish sharoitlari mavjudligi;
- o’qitish markazlari mavjudligi va ularning tashkiliy va moliyaviy nuqtai nazardan ommabopligi;
- ishlab chiqaruvchi firmaning barqaror texnik va moliyaviy holati.

Bank elektron tizimlari super EHMni EHM platformasiga yoki lokal tarmoqlarni qo’llagan holda EHMga joylashtirilishi mumkin.


XULOSA:

Jannatmakon yurtimizning iqtisodiyotining qon-tomiri hisoblangan bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish, yuqori xalqaro reyting ko’rsatkichlariga erishishning ustuvor yo’nalishlari hamda axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda zamonaviy naqd pulsiz hisob-kitoblar mexanizmlarini joriy etish bo’yicha olib borilayotgan ishlar banklarimiz tomonidan mijozlarga ko’rsatilayotgan xizmatlar sifati, to’lov intizomi va madaniyatini yangi bosqichga ko’tarilishini ta’minlash bilan birga, barcha iqtisodiy tarmoqlar taraqqiyotini mustahkamlashga ham o’zining ijobiy ta’sirini ko’rsatadi.

Yangi texnologiyalar banklarga, investitsiya firmalariga va sug’urta kompaniyalariga mijozlar bilan munosabatlarni o’zgartirishga va daromad olishning yangi usullarini topishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akayev A.A., Kenjabayev A.T., Ilxamova Yo.S., Jumaniyozova M.Yu. Iqtisodiyotda axborot komplekslari va texnologiyalari. Darslik.T.-“Fan va texnologiya”. 2019.- 448 bet.;
2. Информационные технологии в экономике и управлении: учебник /под ред. проф. В.В. Трофимова.2-е изд., перераб. и доп.- М.: Юрайт, 2016.-482с.;
3. Автоматизированные информационные технологии в экономике: учебник / Подред. проф. Г.А. Титоренко. 2-е изд. Перераб. и доп. - М.: Юнити, 2015. -399 с..





ISSN (E): 2181-4570

4. I.R. Toymuhamedov “Bank ishi”. O‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashryoti, 2005, 144b
5. Bank ishi. O‘quv qo‘llanma –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010-yil. - 532 bet.
6. Pul va banklar [Matn] : o‘quv qo‘llanma / Abdulloyev A.J. [va boshq.] Buxoro: OOO "Sadriiddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2021. -360 b.

